



1991-yildan  
chiqa boshlagan

2022-yil. 6-son

ISSN 2010-5584

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

[til\\_adabiyot@umail.uz](mailto:til_adabiyot@umail.uz) [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz) [til\\_adabiyot@umail.uz](mailto:til_adabiyot@umail.uz) [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz) [til\\_adabiyot@umail.uz](mailto:til_adabiyot@umail.uz) [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz) [til\\_adabiyot@umail.uz](mailto:til_adabiyot@umail.uz) [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz)

YOZGI TA'TIL MAZMUNLI VA MAROQLI BO'LSIN!



Metodik tavsiya

Roman janrida  
yangilanish jarayoni

15  
bet



Tahlil

Abdulla Oripovning ijod  
laboratoriysi

25  
bet



Tadqiqotlar

Badiiy matnlarni  
lingvomadaniy tahlil  
qilishning nazariy asoslari

31  
bet



Языкоzнание

Перспективы изучения  
каракалпакских ономов

67  
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2022-yil. 6-son.

#### Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'ljin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulkumor MIRZAYEVA  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Luifullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinnbosari)

#### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

#### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

#### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Nargis BOBODJANOVA

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@mail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhazzalarini bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga, 2022.25.06. da tophshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz biechimi 60x841/8. Sharqli bosma tabog'i 6,0. «Ariat» garniturasi. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirabod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma: 29. Adadi 1350 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
XALQ TA'LIMI VАЗİRLİĞİNİNG  
İLMIY-METODİK JURNALI

# ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

#### MUNDARIJA

##### SUHBAT

- Nigora URALOVA. Xalq ta'limi tizimidagi yangi islohotlar va ilk natijalar sarhisobi ..... 3  
TILSHUNOSLIK  
Jumanazar ABDULLAYEV. Kesim asosli bir cho'qqili nazarlya xususida ..... 6

##### METODIK TAVSIYA

- Gulzoda ISAQOVA. Test yechish jarayonidagi ayrim xatoliklar va ularning oldini olish usullari ..... 11  
Shahzoda MUSAYEVA. Kursantlarga chet til orqali madaniyatlarni muloqotni o'rgatishdag qiyinchiliklar va ularning yechimlari ..... 12  
Nilufar SULTONOVA. Roman janrida yangilanish jarayoni ..... 15

##### TAHLIL

- Shakhlo BOTIROVA. Requirements for pedagogical excellence in the management of educational process ..... 17  
Maloxat AXMEDOVA. Kredit tizimida mustaqil topshirilgilar ..... 18  
Dilafruz RAXMATOVA. "Padarkush" dramasida leksik bir ilklarning ifodalaniishi ..... 20  
Nargiza XODJAKULOVA. O.Genri ijodi yuzasidan tanqidiy shariilar (1908-1960) ..... 21  
Jandos BAYZAKOV. Landscape situations in the illumination of the human psyche ..... 23  
Muxayyo RAYXONOVA. Abdulla Oripovning jod laboratoriysi ..... 25  
Yulduz QURBONOVA. O'quvchida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari ..... 27

##### TADQIQOT

- Shahnoza TURNIYOZOVA. Matn derivatsiyasida yuklamlarning o'rni ..... 29  
Nabi JO'RAYEV. Badiy matnlarni limgvomadanliy tahlil qilishning nazarly asoslari ..... 31  
Xusn MINAVAROV. Ijtimoiy tarmeq internet-muloqot Janri sifatida ..... 33  
Azimjon MAJIDOV. Qurroli kuchlar akademiyasi pedagogik kadrlari innovatsion faoliyati ..... 35  
Xamroqui RAXMONQULOV. Qalamtasvirda natyurmort chizishda ikki, uch geometrik shakkardan foydalananish usullari ..... 37  
Zohida MUQIMOVA. "Onomastik metafora" termini xususida ..... 39

##### KICHIK TADQIQOT

- Dilfuza ZARIPOVA. Didaktik asarlarda nafs tarbiyasi ..... 40  
Gulbahor BEKTASHEVA. Begali Qosimov tadqiqotlarida jadid adabiyyoti va tarixiy hodisalarga munosabat masalasi ..... 42  
Kamola EGAMBERDIYEVA. Ayol obrazining badiy talqini ..... 44  
Zarina JALILOVA. Xurshid Do'stmuhammad qissalarida obrazlarning psixologik olami ..... 45  
Feruza JURAYEV. Badiy matn tahillida germenevtikaning o'rni ..... 47  
Turdali SULTANOV. Sequence, features and factors of pedagogical research in educational works ..... 48  
Nurseit BEKETOV. Characteristics of educational work at the intersection of levels of general education ..... 50  
Ganisher JURAYEV. A communicative approach to teaching speaking ..... 52  
Nazokat YUSUFJONOVA. "Adabiyyot" darsliklarida xalq dostonlari mavzusining o'rganilishi ..... 53  
Fazliddin BADRIYEV, Olim ESHNIYOZOV. Yangi O'zbekiston o'qutuvchisi ..... 54

##### QO'SHIMCHA MATERIAL

- Elmirza ERKAYEV. Chet til ta'limida tarjima mashqlari ..... 55  
К ДНЮ РОЖДЕНИЯ ПОЭТА  
Диер НИЗАМИДДИНОВ. Ирина ШАПИЕВА. «К нему не застает народная тропа» ..... 57

##### ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

- Ирина МОРОЗОВА. Изучение функциональных стилей на занятиях РКИ ..... 60  
Азиза БЕДИЛОВА, Саодат ИСМАИЛОВА. Обучение экономической терминологии – основа освоения профессиональной лексики ..... 63

##### ЯЗЫКОЗНАНИЕ

- Беккенбаев РЕЙМОВ. Перспективы изучения каракалпакских ономов ..... 67  
Светлана ИМ. Морфонология и ее статус в лингвистических дисциплинах ..... 69  
Музффар ХОДЖАХАНОВ. Анализ терминов маркетинга ..... 71  
Махбуба ХАМИДОВА, Наргиза УСАНОВА. Развитие лингвистической герменевтики на современном этапе ..... 72

##### СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

- Наргиза ХОДЖАЕВА. Исследования туристического языка в сопоставлении с переводами с английского на узбекский языки ..... 74

##### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

- Анина КУРЧАСТОВА. Особенности изображения пространства и времени в рассказах Александра Райна «Лифт», «Тимошка» ..... 76

##### К ЮБИЛЕЮ ПИСАТЕЛЯ

- Андрей КУЧИНСКИЙ. «Вечный детский взгляд...» ..... 78

##### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

- Мунира АБИЛКОСИМОВА. Прагматический и когнитивный аспекты взаимовлияния узбекского и русского языков ..... 81

##### ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

- Оксана ГИБРАЛТАРСКАЯ. Разработка и внедрение дисциплины по выбору в условиях кредитно-модульного обучения ..... 84

##### ОБСУЖДАЕМ, СПОРIM

- Шоира ХАШИМОВА. Преподавание литературных дисциплин – главный фактор образования ..... 86

##### СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

- Анатолий ЛИХОДЗИЕВСКИЙ. Поэт белорусского народа ..... 87

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsия etilgan ilmiy nashrdir.

## Metodik tavsiya

ments at the highest level. The requirements imposed by society on the educator, the most important personal qualities of various teachers are their homeland, native language, love for the history of their people and their culture living in the idea of state independence, a high sense of social responsibility, the assimilation of such qualities by children from society, the ability to self-development. It is also important that he is noble, smart, spiritually pure, and corresponds to high goals in spirituality and enlightenment.

The teacher's loyalty to his homeland, love for children, the desire to educate them in the spirit of humanism are social expectations, the individuality of the educator, his readiness to meet the requirements thus testify to the readiness of a particular educator for pedagogical activity. [3: 10] In a certain historical period of society, the solution to the issue of the main and secondary variable characteristics of the educator, characteristic of the specified time and place of work, becomes somewhat more complicated. The new conditions that are taking place in society pose new goals and objectives in the field of education and professional training. In order to form a child as a free-thinking personality

that meets modern requirements, it is necessary that the educator himself be an independent thinker, highly educated, broad-minded person and regularly develop these qualities in himself. Parents expect him to be able to educate and teach their children, despite teacher's working experience and age. And children characterize teachers according to three different qualities. In particular, firstly, the educator's humanism, justice, clear conscience, the qualities of loving children; secondly, depending on the external qualities and behaviour associated with the sensitivity, hard work of the educator; thirdly, they characterize the educator in accordance with his qualities related to the educational process, such as his knowledge of science, his understanding of it. It should be noted that along with the requirements for increasing the efficiency of the educational process, social requirements for the personality of the teacher and his activities are also growing. The requirements for the educator on the part of society, various social expectations, the individuality of the educator, his readiness to meet the requirements thus indicates the level of readiness of a particular teacher for pedagogical activity.

## References

1. Mirziyoyev Sh.M. We will build our great future together with our brave and noble people. – Tashkent: Uzbekistan, 2017.
2. Saidakhmedov N. Pedagogical skills and pedagogical technologies. – Tashkent: API, 2003.
3. Sultanova G.A. Pedagogical excellence. – Tashkent: TSPU named after Nizami, 2005.
4. Botirova Sh.I. Forming patriotic spirit within pedagogical education cluster // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020, 8 (10), pp. 200-205.
5. Botirova Sh.I. The role of artistic literature in the spiritual development of youth // World science, 2018, 5 (14), pp. 26-28.
6. Botirova Sh.I. Methodology and technology of social and pedagogical activity // Theory and practice of modern science, 2018, 1 (31), pp. 14-16.
7. Botirova Sh.I. Innovative cluster of pedagogical education as a new priority // Academic Research in Educational Sciences, 2020, 1 (3), pp. 487-494.

Tahlil



Toshkent tibbiyot akademiyasi O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi mudiri,  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

## KREDIT TIZIMDA MUSTAQIL TOPSHIRIQLAR

Kredit o'qitish texnologiyasi bu – o'quv jarayonini tashkil etish usuli bo'lib, unda talabalar o'quv trayektoriyasining ketma-ketligini alohida rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. O'qitishning kredit texnologiyasida o'quv ishlarining mehnat intensivligi o'qitiladigan material hajmini tavsiflovchi kreditlarda hisobga olinadi. Uning asosiy vazifalaridan biri talabalarning mustaqil ishlari rolini oshirish bo'lib, oliv ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga kredit texnologiyasini joriy etishdan maqsad milliy ta'lim tizimining xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvi, o'quv jarayoni subyektlarining akademik harakatchanligini ta'minlashdan iboratdir. Talabaning mustaqil ishi (TMI) ta'lim sifatini oshirish

va bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashning asosiy zaxiralardan biri hisoblanadi. O'qitishning kredit tizimiga ko'ra, u o'rganilayotgan kurs umumiyligi mehnat intensivligining uchdan ikki qismini tashkil etadi. Shuning uchun ta'limning kredit tizimini joriy etish sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini to'g'ri va samarali tashkil etish muammosi juda muhim ahamiyatga ega. Olyi o'quv yurtlarida kredit texnologiyasini joriy etish universitetda o'quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko'rib chiqish, o'qitish texnologiyasidagi o'zgarishlar va ularni uslubiy qo'llab-quvvatlashni talab etadi, talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga e'tibor

qaratish imkonini beradi. TMI bu – mustaqil o'rganish uchun ajratilgan, o'quv-uslubiy adabiyotlar va tavsiyalar bilan ta'minlangan, testlar, nazorat varaqalari, kollokviumlar, referatlari, insholar va hisobotlar shaklida nazorat qilinadigan mavzularning aniq ro'yxati bo'yicha ishlash bo'lib, talabadan har kuni mustaqil ishlashni talab etuvchi vazifalar bilan tasdiqlanishi kerak. Talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish uchun oliy maktab o'qituvchisi uni tashkil etishning quyidagi tamoyilliga rioya qilishi zarur: tizimlilik va izchillik, faoliyat, individual yondashuv, mavjudlik. [1]

Talabalarning mavzusi va mustaqil ishi mazmuni davlat ta'lim standarti, amaldagi o'quv dasturlari, fanlarning namunaviy va ishchi o'quv dasturlari, asosiy adabiyotlarda aks etishi lozim. Dars mashg'ulotlari o'quv va uslubiy qo'llanmalar hamda qo'shimcha adabiyotlar bilan belgilanadi. Mustaqil ishi nazorat qilish va uning natijalarini baholash ikki shaklning birligi sifatida tashkil etiladi: talabaning o'z-o'zinii nazorat qilishi va o'z-o'zinii baholashi; o'qituvchilar, davlat imtihonj va attestasiya komissiyalari tomonidan monitoring hamda baholash. Oliy ta'limdiagi mustaqil ish bu – o'quv jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos usuli bo'lib, kasbiy faoliyat usullarini o'zlashtirishda talabalarning o'zini o'zi tashkil etish va tarbiyalash vositasi sifatida qaraladi. Mavjud ilmiy pedagogik adabiyotlar tahlili turli xil yondashuvlar va "talabalarning mustaqil ishi" tushunchasining noaniq tarifini ko'rsatadi. Mustaqil ishlarni bajarish uchun zarur shart-sharoit va sharoitlarni yaratadigan tadbirlar har bir talabaning axborot resurslari (ma'lumotnomalar, dars mashg'ulotlari, alohida vazifalar banklari, o'quv dasturlari, amaliy dasturlar paketlari), uslubiy materiallarni (ko'rsatmalar, qo'llanmalar, ustaxonalar, ish daftarlari), nazorat materiallari (testlar, vaziyatlari vazifalar); moddiy resurslar (laboratoriya, o'lchov asbob-uskunalar), vaqt resurslari, konsultatsiyalar, individual ta'lim trayektoriyasini tanlash (fakultativ fanlar orqali o'quv dasturlari) hamda talaba tomonidan mustaqil ravishda olingan nazariy yoki amaliy natijalarni (konferensiya, olimpiada, musobaqalar) jamoatchilik muhokamasiga qo'yish imkoniyati sanaladi. Mustaqil ishlarni bajarish uchun zarur shart-sharoit va sharoitlarni yaratadigan tadbirlar har bir talabaning axborot resurslari (ma'lumotnomalar, dars mashg'ulotlari, alohida vazifalar banklari, o'quv dasturlari, amaliy dasturlar paketlari), uslubiy materiallarni (ko'rsatmalar, qo'llanmalar, ustaxonalar, ish daftarlari), nazorat materiallari (testlar, vaziyatlari vazifalar); moddiy resurslar (laboratoriya, o'lchov asbob-uskunalar), vaqt resurslari, konsultatsiyalar, individual ta'lim trayektoriyasini tanlash (fakultativ fanlar orqali o'quv dasturlari) hamda talaba tomonidan mustaqil ravishda olingan nazariy yoki amaliy natijalarni (konferensiya, olimpiada, musobaqalar) jamoatchilik muhokamasiga qo'yish imkoniyati sanaladi. Mustaqil ishlarni bajarish uchun zarur shart-sharoit va sharoitlarni yaratadigan tadbirlar har bir talabaning axborot resurslari (ma'lumotnomalar, dars mashg'ulotlari, alohida vazifalar banklari, o'quv dasturlari, amaliy dasturlar paketlari), uslubiy materiallarni (ko'rsatmalar, qo'llanmalar, ustaxonalar, ish daftarlari), nazorat materiallari (testlar, vaziyatlari vazifalar); moddiy resurslar (laboratoriya, o'lchov asbob-uskunalar), vaqt resurslari, konsultatsiyalar, individual ta'lim trayektoriyasini tanlash (fakultativ fanlar orqali o'quv dasturlari) hamda talaba tomonidan mustaqil ravishda olingan nazariy yoki amaliy natijalarni (konferensiya, olimpiada, musobaqalar) jamoatchilik muhokamasiga qo'yish imkoniyati sanaladi.

Talaba olgan topshiriqlar belgilangan muddatda va fo'lilq bajarilishi kerak. TMI auditoriyadan tashqari ish sifatida taqdim etiladi, tekshirish seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va TMI larda amalga oshirilishi mumkin. Vazifalarni bajarishda mavzuni mustaqil ravishda o'rganish, zarur hollarda o'qituvchi bilan maslahatlashish, talabalarning maqsadli majburiy va qo'shimcha adabiyotlar, statistik ma'lumotlar materiallarni o'rganishlari, zarur strategiya va qarorlarni asoslash uchun ularni tahlil qila olishlari talab etiladi. TMI talaba faoliyatidagi ijodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi va uch darajada amalga oshirilishi mumkin:

1. Reproduktiv faoliyat (o'quv materialini o'zlashtirish va ko'paytirish).

2. Namuna bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlarni tayyorlash (muammolarni hal qilish, jadvallar, diagrammalarni to'ldirish. Bunday ishdan maqsad bilimlarni mustahkamlash, ko'nikmalarni shakllantirishdir).

3. Reproduktiv va amaliy faoliyat (o'z tajribasi asosida o'quv materialini o'zlashtirish, materialni amalda, faoliyatda, mustaqil ish paytida tekshirish, reja, referatlari, annotatsiya yozish) hamda ijodiy faoliyat (talaba mustaqil ravishda bajarilgan ish vositalari va usullarini tanlashi, o'quv materialini tanqidiy baholashi va undan samarali fikrlash va faoliyat uchun foydalanishi kerak, muddatli ishlarni tezislari shu darajada bajariladi).

TMI shakllari quydagicha izohlanadi: **xulosa** – A10 formatidagi 12 sahifada, TNR shriftida 14 ta mavzuni tanqidiy ko'rib chiqish yoki taqdim etish. Tuzilishi an'anaviy: sarlavha sahifasi, kirish, asosiy qism, xulosalar, foydalanilgan manbalar ro'yxati. Abstrakt guruhda muhokama uchun o'rtaqa qo'yilishi mumkin. **Hisobot** – 3–5 daqiqa davom etadigan mavzuning asosiy qoidalari qisqacha mazmuni, o'rganish davomida olingan natijalar, asosiy muammolar va ishlab chiqish bo'yicha takliflarning yozma va og'zaki tavsifi. **Sinopsis** – standart formatidagi ish kitobining 2–4-betida asosiy tushunchalarni ajratish bilan berilgan mavzuning qisqacha tavsifi. **Glossary** – berilgan mavzu bo'yicha tushuncha va atamalar lug'ati bo'lib, jadvalda joylashtirilgan. **Keys** – guruh tahlili paytida yechimni talab qiladigan vaziyat. Guruh 3–4 kishidan iborat bo'lib, ular muammoni mustaqil muhokama qiladi va uni hal qilish yo'llarini ishlab chiqadi. Qaror natijalari umumiy guruhda yakuniy hisobotning taqdimoti shaklida taqdim etiladi. **Taqdimot** – turli xil texnik vositalar yordamida ham, ularsiz ham ma'lumotlarni taqdim etish shakli. Odatta, yangi g'oyalalar, loyihamar, xizmatlar va boshqalar taqdim etiladi. **Loyiha** – shaxsan yoki guruhda amalga oshiriladigan kerakli ma'lumotlarni qidirish, yig'ish va tahlil qilishni o'z ichiga olgan mavzu bo'yicha tadqiqot. **Bahs** – mavzuning oldindan tayyorlangan masalalarini xulosa bilan muhokama qilish.

Mamlakatimizda kredit ta'lim tizimini joriy etishning birinchi tajribasi shuni ko'rsatdiki, kredit tizimidan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy vazifalaridan biri bu TMI rolini kuchaytirishdir. Auditoriyada dars mashg'ulotlari va mustaqil ish uchun e'tibor talabalarda o'z-o'zinii rivojlantirish, erkin tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. [2] Mustaqil ishning tarbiyaviy roli shundan iboratki, u bo'lajak mutaxassisning shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashning faol vositasi hisoblanadi. [3] O'qitishning kredit texnologiyasi talabaning mustaqil ishining ikki turini nazarda tutadi: o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan, ammo uning bevosita ishtiroykisiz auditoriyadan tashqari bajariladigan TMI; o'qituvchi rahbarligida auditoriyadagi TMI.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, TMI dan maqsad talabalarni o'z bilimlarni mustaqil to'ldirish va takomillashtirishga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu orqali uni-

versitet oldida turgan ijtimoiy muammo – talabalarni o'qishga o'rgatish hal etiladi. Didaktik jihatdan mustaqil ish bilim, ko'nikma va malakalarni egallahshning asosiy usullari hamda ta'larning tashkiliy shakkidan biri vazifasini bajaradi. Pedagogik jihatdan talabaning mustaqil

ishi, avvalo, bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni mustaqil egallahsha qaratilgan bilim jarayonlari tizimidir. Bir so'z bilan aytganda, mustaqil ish talabaning bilim va ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishning asosiy vositalari dan biri sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – Москва: Педагогика, 1981. – 186 с.
2. Лихачев Б.Т. Педагогика. Курс лекций: учебное пособие. – Москва: Прометей, 1992. – 528 с.
3. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / Под ред. Е.С.Полат. – Москва, 2002.

Dilafruz RAXMATOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

## “PADARKUSH” DRAMASIDA LEKSIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Mahmudxo'ja Behbudiyning uch pardasi, to'rt ko'rinishdan iborat “Padarkush” dramasi 1911-yilda yozilgan bo'lsa-da, 1913-yilda nashrdan chiqqan. Kitob jildiga “Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi”, degan qayd bor. Tbilisi senzurasidan ruxsat olinganligi esa zamon talabi bo'lgan. Bosilib chiqqach, goh hukumat vakillarining qarshiligi, goh mablag' yetishmasligi, goh aktyorlar yo'qligi sababli sahnaga qo'yilishi uchun qariyb bir yil vaqt ketgan.

Dramaning tili va uslubiy xususiyatlari haqida gap ketganda uning yozilishiga sabab bo'lgan omillarni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Rus bosqinchiligi oqibatida Turkiston xalqlari orasida yuzaga kelgan avomlik, savodsizlik, ruslarning maishiy turmush tarzi xalqimiz ma'naviy muhitiga ta'sir qilmasdan qolmagan, albatta. Ahvolni boshqalardan ko'ra avval payqagan ziyolilar uni bartaraf etish va oqibatlarini xalqqa tushuntirish choralarini izlagan. Binobarin, Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi ham shu maqsadda yozilgan asardir. Ammo muallif oldida hali o'zbek dramaturgiyasining shakllanmaganligi, dramatik asarlar yozish borasida tajribaning yo'qligi, xalqimiz bu kabi sahna asarlarini ko'rishga tayyor emasligi kabi qator muammolar turardi. Shunga qaramasdan, Behbudiy bu mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Xalq hayotidagi ma'naviy tanazzulni anglatishning ishonchli yo'li ijtimoiy hayotning bir parchasini sahnaga olib chiqish orqali odamlar ongi va ruhiyatiga ta'sir o'tkazish deb bildi.

Bunday asarni yaratishning o'z talablari bor edi, albatta. Eng avvalo, asar sodda xalq tilida yozilgan va omma uchun tushunarli bo'lishi kerak edi. Ammo asar yozilgan paytlar – XX asrning boshlarida Turkistonda, bir tomonidan, arab yozuvining amalda bo'lganligi, ikkinchi tomonidan, dinka qarshi kurash niqqobi ostida bu yozuvda yaratilgan ilmiy va badiiy merosning o'rgani-

lishiga taqiq qo'yilganligi vaziyatni murakkablashtirib qo'yan edi. Xalqning jonli so'zlashuv tili bilan matbuot va badiiy til o'rtasida ma'lum ma'noda tafovutlar paydo bo'lgan edi.

Asarning lug'at tarkibidagi leksik birliklar tarixiy-etimologik qatlamini bir necha guruhlarga ajratib o'rganish mumkin. Masalan:

1. Ruscha so'zlar. Ularni uch guruhga ajratish mumkin:

– aslicha, o'zgarishsiz qo'llangan so'zlar: gimnaziya, izvoshchiklik, dyujina, interesniy, marsh, pivo, kvas;

– o'zbek tili talaffuz me'yorlariga moslashtirib qo'llangan so'zlar: barishna, ispasiba, isprizdim, priyexal, do'briy vechrim, zako'nchilik, injenerlik, sudyaliy;

– muallif izohlarida qo'llangan so'zlar: karavot/ krovat, papirus, pivaxona, palto, stakan, poliseyski, politsiya, pristuf.

Dramada ruscha so'zlarning bir qadar faol qo'llanishi muayyan sabablar bor. Birinchidan, bosqinchilik mahsuli o'laroq XX asrning boshlarida Turkiston hudo-dida rus millatiga mansub aholi ko'paya boshlagan va hukmronlik siyosati davlat boshqaruvi hamda mahkama ishlariga ham ta'sirini kuchaytirib borayotgan; ikkinchidan, Rossiya hayoti, sanoati, ishlab chiqarishi, ish yuritishi, umuman, ruslarning turmush tarziga oid ko'pgina yangiliklar kirib kelishga ulgurgan; uchinchidan, bu sohalarga oid so'zlar aholining ayrim qatlamlari tomonidan qabul qilinib, muomalaga kiritila boshlangan edi. Shunday bo'lgach, ruscha so'zlarning drama matnida keltirilishi ham tabiiy hol edi. Asarda bunday chet til vositalarining qo'llanilishi asar voqealari tasvirining tabiiy bo'lishiga xizmat qilgan.

2. Aksariyati diniy xarakterdagи arabcha so'zlar: amri ma'ruf, diniy, domullo (domla), inshoollo, islomya, qiyomat, muazzin, mudarris, mullo (mulla), musulmoniy, mufti, namoz, Alloh, Allohu akbar, omin, oxirat,